



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**BUXORO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 030,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 30,8 % ga, ishlab chiqaradigan sanoati – 2,6 % va suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 0,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2021- yil

B

1,1 %

2022- yil



B

1,1 %


yanvar-may

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	361,0	782,0	421,0
Gips (gips tosh), t.	83 089,0	67 569,0	-15 520,0



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. soʻm	46 788,1	48 250,5	-1 462,4

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m

yanvar-may

FHI*,% da



2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 549,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,0 % ini tashkil etdi.


2021-yil
yanvar-may

95,2 %

2022-yil
yanvar-may

94,0%

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-may oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 2,0 % (1,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 50,9 % (54,7 %) va quyi texnologiyalisi – 47,0 % (43,5 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,4 % (2021- yil yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 91,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 26,8 % (2021- yil yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,4 % (2021- yil yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 102,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,1 % (2021- yil yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 105,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg‘isi



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Avtomobil benzini



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Mazut



2020-y. 2021-y. 2022-y.

O‘simlik yog‘i (tozalangan)



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Konyak spirti (konyak distillyati)



Aroq



Uzum vinosi



Paxta linti



Paxta chigiti



Paxta tolasi




2022- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 384,4 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 107,8 % ga), 124,9 ming litr uzum vinosi (70,3 %), 1 935,4 ming litr aroq mahsulotlari (3,0 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Mazut, ming t.	35,3	30,1	-5,2
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	3 860,0	2 623,0	-1 237,0
Paxta tolasi, t.	45 946,0	38 873,0	-7 073,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	36 663,0	36 803,1	140,1
Paxta chigiti, t.	71 597,0	57 495,0	-14 102,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	14 766,8	17 980,0	3 213,2

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 121,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 86,6 % ga va ishlab chiqarish hajmi 25,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 405,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,8% ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,0 % ga va ishlab chiqarish hajmi 1 314,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 26,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 101,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 152,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 118,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajmi indeksi 126,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 77,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 57,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 86,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 147,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 43,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 82,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,4 % ni, fizik hajm indeksi 91,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 245,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 136,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 118,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 327,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 151,0 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3,0	3,0	-
Issiqlik energiyasi, ming gkal	464,6	422,4	-42,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 637,1	6 687,7	-949,4
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	203,5	206,1	2,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 12,4 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,2 % ga oshganligi kuzatildi. .

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 554,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 44,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-may

36,3%

2022-yil
yanvar-may

31,7%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-may

63,7%

2022-yil
yanvar-may


68,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,0 % (2021- yil yanvar-may oylarida 2,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 30,3 % ni va Buxoro shahri 18,5 % ni, G'ijduvon tumani 11,5 % ni hamda Jondor tumani 6,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (117,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Olot tumani (139,7 %), G'ijduvon tumani (134,0 %), Buxoro shahri (129,3 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 30,3% shuningdek, Buxoro shahri 18,5 %, G'ijduvon 11,5 % ni, Jondor 6,5 % tumanlari tashkil etdi.



2 086,6 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-may

2 812,0 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-may

3 554,9 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-may



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil 97,2 %

2021- yil 122,0 %

2022- yil 117,9 %

o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 43,8 % shuningdek, Buxoro shahri 17,4 % ni, G'ijduvon tumani 12,0 %, Kogon tumani 4,8 % ni tashkil etdi.

1 280,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-may

1 791,2 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-may

2 426,6 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-may



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 21,0 % ni, shuningdek, Jondor tumani 14,7 % ni, G'ijduvon tumani 10,3 % ni, Kogon shahriga esa 8,5 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati shahar va tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 42,5 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 12,1 % ni, G'ijduvon tumani esa 9,1 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2020- yil

6 712,7 mlrd. so'm

2021- yil

7 113,1 mlrd. so'm

2022- yil

8 030,7 mlrd. so'm



2020- yil


100,3 %

2021- yil

93,9 %

2022- yil

98,8 %




FHI, % da

mlrd. so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (178 383,0 ming so'm), Kogon shahrida (5 549,4 ming so'm), Kogon tumani (5 498,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 055,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



ming. so'm
o'sish sur'ati




Buxoro viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 795,4 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 56 316,2 ming so'mni, Kogon tumani - 2 764,3 ming so'mni, Buxoro shahrida – 2 318,2 ming so'mni, Kogon shahrida – 2 179,7 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2 861,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.



Buxoro Viloyati

2020- yil

1 720,9 mlrd. soʻm

2021- yil

2 328,5 mlrd. soʻm

2022- yil

2 861,8 mlrd. soʻm



2020- yil

25,6 %

2021- yil

32,7 %

2022- yil

35,6 %

2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 890 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 249 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,5 % i) Buxoro shahriga, 592 tasi (12,1 % i) G'ijduvon tumaniga, 386 tasi (7,9 % i) Kogon tumaniga, 379 tasi (7,8 % i) Buxoro tumaniga, 361 tasi (7,4 % i) Jondor tumaniga, 355 tasi (7,3 % i) Romitan tumaniga, 289 tasi (5,9 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

